

## UMAR XAYYOMNING “NAVRO`ZNOMA” ASARI TAHLILI

*Xoliqulova Zarnigor**Termiz davlat universiteti Filologiya va tillarni o`qitish fakulteti**2-bosqich talabasi*[O6984404@gmail.com](mailto:O6984404@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada matematik, astronom, faylasuf, hakim, fizik, mutafakkir va shoir G`iyosiddin Abulfath Umar ibn Ibrohim Xayyom Nishopuriy qalamiga mansub bo`lgan Navro`zning kelib chiqish tarixi, Sharq xalqlarining bu bayram bilan bog`liq an`ana va marosimlari keng yoritilgan “Navro`znoma” asari bilan bog`liq bo`lgan tahlil va munozaralar bilan tanishamiz.

**Kalit so`zlar:** Mutafakkir, etnograf, Navro`z, Eron podshohlari, Ibn Sino, fors nasri, quyosh taqvimi, urf-odat, ibratli hikoylar.

**Аннотация:** В данной статье мы познакомимся с анализом и обсуждениями, связанными с произведением «Наврузнама», представляющим собой всестороннее изложение истории возникновения Навруза, а также традиций и обрядов народов Востока, связанных с этим праздником, написанное математиком, астрономом, философом, судьей, физиком, мыслителем и поэтом Гиёсиддином Абульфатом Умаром ибн Ибрагимом Хайямом Нишапури.

**Ключевые слова:** Мыслитель, этнограф, Навруз, иранские цари, Ибн Сина, персидская проза, солнечный календарь, традиция, поучительные истории.

**Abstract:** In this article, we will get acquainted with the analysis and discussions related to the work "Navruznama", which is a work written by the mathematician, astronomer, philosopher, judge, physicist, thinker and poet Ghiyosiddin Abulfat Umar ibn Ibrahlim Khayyam Nishapuri, which extensively covers the history of the origin of Navruz, the traditions and rituals of the peoples of the East associated with this holiday.

**Keywords:** Thinker, ethnographer, Navruz, Iranian kings, Ibn Sina, Persian prose, solar calendar, customs, instructive stories.

Buyuklarning buyukligi shundaki, ularning nomlari va kelajak avlod uchun qoldirgan meroslari sarhad bilmaydi. Ular o`zlarining nodir asarlari bilan har bir davr insonlari uchun ta`lim- tarbiya, bilim va ko`nikmalar berib, yoshlarning har tomonlama mukammal bo`lishida katta hissa qo`shganlar. O`zining nodir asarlari bilan o`zbek adabiyoti xazinasini boyitgan ijodkor va buyuk mutaffakirlardan biri bo`lgan Umar Xayyom ham mana shunday nomi va qoldirgan merosi bilan hali hanuzgacha ko`plab millatlarning adabiyotida yuksak o`rinlarda turadi.

Umar ibn Ibrohim Xayyom Nishopuriy 1048-yilda Nishopur shahrida tavallud topgan. U ilmda ham, ijodda ham o`zini shayx urrais Abu Ali ibn Sinoning hassos va

sadoqatli shogirdi hisoblagan. Umar Xayyomning “Mushkulot ul-hisob”, “Risola fil vujud”, “Risolat ul-kavn vat-taklif” va 12- asr fors nasrining nodir namunasi hisoblangan “Navro`znoma” asarlari hali hanuz eng qimmatli meroslar hisoblanadi. Ayniqsa uning “Navro`znoma”si bu boradi juda e`tiborga loyiq na`munadir. Ushbu asar ,asosan, Navro`z bayrami bilan bog`liq hikoyalar va she`rlar to`plamidan iborat bo`lishi bilan bir qatorda ijodkorning falsafiy va estetik qarashlarini, shuningdek, inson hayoti, vaqt, tabiat va baxt haqida chuqur fikrlarni aks ettiradi. Asarda joylashgan hikoyalar ko`pincha hayotning turli jabhalarini, insonning ichki kurashlarini va tabiatning go`zalligini tasvirlaydi. Bundan tashqari Umar Xayyom ushbu asarda quyosh taqvimining tarixini bayon qilib, shu taqvim bo`yicha Eron podshohlarining Navro`z kunini qanday belgilaganliklari va bayramni qay tarzda o`tkazganliklarini tarixiy dalillar bilan bayon qilgan. Biz bu risolada Navro`z bayrami bilan bog`liq bo`lgan juda ko`p odatlar, o`zgacha hodisalar va afsonalarga duch kelamiz. Umar Xayyom bu risolada nafaqat etnograf tarixchi, balki bilimdon tabib sifatida ham namoyon bo`ladi. U inson organizmining fasldan faslga o`tganda o`zgarishini hisobga olib, eng kerakli tibbiy maslahatlarni beradi.

Asarda Ajam podshohlarining odatlari haqida ham bir qancha ma`lumotlar keltirilgan bo`lib, podshohlar barcha zamonlarda iloji boricha dasturxonni yaxshiroq qilib bezatishni odat qilganliklari, adolat bilan ish ko`rish, binolar qurish, turli xil bilimlarni o`rganish, falsafiy mashg`ulotlar, olimlarga homiylik qilish kabi odatlar bilan shug`ullanib, ular uchun katta mehnat sarf qilganliklari aytib o`tilgan. Bundan tashqari asarda oltin va uning xususiyatlari, dafinalarning alomatlari, uzuk va uning xislatlari, arpa va shu bilan birgalikda qilich, o`q va yoy kabi jang qurollari, ot, lochin kabi hayvonlarga xos xususiyatlar, ularning o`rni, yasash sharoiti va yana shunga o`xshash ma`lumotlar ham o`rin olgan.

Shu bilan birgalikda asarda ibratli hikoyalar ham keltirilgan bo`lib, ular asarda ifoda etilgan fikrlar va mavzular bayonini keng tarzda yoritishga yordam beradi. Masalan, “Bir kishi va uning o`g`li” hikoyasida ota va o`g`il o`rtasidagi munosabatlar bayon etilib, ota o`z og`lini tarbiyalashda hayotiy tajribalardan foydalanadi. Hikoyada ota o`g`lining yo`lini topishiga yordam berishga harakat qiladi, lekin ba`zida o`zining tajribalari orqali kelajakda qanday xatolar qilishi mumkinligini tushunadi. Bu hikoya orqali avlodlar o`rtasidagi aloqaning ahamiyati namoyon bo`ladi.

Asarda “sevgi va g`am” hikoyasi ham keltirilgan bo`lib, unda muhabbatning kuchi va uning hayotdagi o`rni ko`rsatiladi. Hikoyada Xayyom sevgi tuyg`ularining beqarorligini va uning inson hayotiga ta`sirini tasvirlaydi. Muhabbat ko`plab qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin, lekin u shu bilan birgalikda insonga umid va ilhom beradi. Bu hikoyada Xayyom inson ruhiyatining nozik qirralarini ochib beradi. Asardagi “Tabiat va inson” hikoyasida tabiatning go`zalligi va insonning uni qadrlashi muhokama qilinadi. Xayyom tabiatni inson hayotining ajralmas qismi sifatida

ko`rsatadi. Tabiatning muhtashamligi insonni o`zining maqsadlari va intilishlari haqida o`ylashga undaydi. Bu hikoya orqali Xayyom insoniyatni tabiat bilan muvozanatda yashashga chaqiradi. Asarda bundan tashqari ham ko`plab hikoyalar keltirilgan bo`lib, ularda ham ibratomuz fikrlar ilgari surilgan.

Umuman olganda, Xayyomning bu asari nafaqat Navro`z bayramining ma`nosini ochib beradi, balki insoniyatning umumiy qadriyatlari va hayotga bo`lgan sevgisini ham ifodalaydi. Shunday ekan biz bu asarni inson hayotidagi barcha javhalarni o`zida namoyon etgan eng nodir va noyob asarlar sirasiga kiritishimiz mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Umar Xayyom "Navro`znoma". Toshkent "Mehnat" 1990.
2. Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. - Toshkent. 2004.
3. <https://kh-davron.uz>
4. <https://uz.wikipedia.org>